

**MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN
BOLALAR OILASINI KORREKSION –PEDAGOGIK YORDAMGA JALB
ETISH TEENOLOGIYALARI**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Maxsus pedagogika yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Mirsultonova Ominabonu Baxtiyor qizi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagি eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar oilasini korreksion-pedagogik yordamga jalb etish texnologiyalari ota-onalarga eshitmaydigan bolalar bilan oilada mashg'ulotlar o'tkazish yuzasidan batafsil maslahatlatlar, va ota-onalarga pedagogik yordam ko'rsatish haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: surdopedagog, ota-onsa, talimiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, korreksion maqsad, nutq.

Bolani nutqqa o'rgatishni qanchalik erta boshlansa, uning rivojlanishida eshitadigan bola bilan farq shunchalik kam va keyingi ta'lim imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. o'qitishni boshlashni paysalga solmang. Vrach hamda surdrpedagog tashhisи va xulosasi asosida bolani kar bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilishadi. Bolalar bog'chasida surdopedagog va tarbiyachilar uni shu yoshdagи eshitadigan bolani o'rgatishgan hamma narsaga: rasm solish, yopishtirish, qurish, sanash va xatto raqs tushishga o'rgatishadi. Hamma bolalar kabi uni ham mehnatsga, ozodalikka, muloyimlikka o'rgatishadi. Bunda *meniki-bizniki, mumkin-mumkin emas, rost-yolg'on* kabi ko'plab hayotiy muhim, ilk yoshda shakllantiriladigan va bevosita tarbiya natijasi sanalmish tushuncha va ko'nikmalar shakllantirila boshlaydi.

Biroq, bundan tashqari, kar bolalar tarbiyachisi oldida o'ziga xos vazifalar ham turadi. Bolalar bog'chasida bolalarni gapirish va nutqni tushunishga o'rgatishadi, uning qoldiqli eshitishini rivojlantirishadi.

Kar bolani gapirishga o'rgatish uni tovushlarni talaffuz qilishga o'rgatishgina emas, garchi bu kar bola tarbiyasida o'ziga xos sanaladi va alohida malakalarni talab qiladi, biroq asosiysi nutq mazmunini tushunishga o'rgatish va muloqotda og'zaki nutqdan foydalanishga, so'zlovchining lab harakatlariga ko'ra tushunishga va o'zi tushunarli qilib gapirishiga o'rgatishga e'tibor beriladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalashda surdopedagog o'zaro faoliyatida ota – onalar bilan yakka tartibda (individual) ishning samarali shakllari ular bilan o'zaro tushunishni yo'lga qo'yish, pedagoglarning oilada eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani rivojlanish xususiyatlarini tushunishlari uchun juda muhim ahamiyatga

ega. Bolalari maktabgacha ta'limga tashkilotiga endigina qabul qilingan ota – onalar bunday suhbatlarga ayniqsa ehtiyoj sezadi.

Odatda, hafta oxirida surdopedagog xamkorlikda ota – onalar uchun turli bo‘limlarga oid topshiriq va tavsiyalar tayyorlaydi. Bolaning ota – onasi bilan uchrashuv chog‘ida har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshiriqlar xarakteri aniqlashtirib olinadi. Ota – onalarga bolaning materialni o‘zlashtirishini maishiy vaziyatlar bilan bog‘lash, o‘yinli usullarni qo‘llash, faoliyatning boshqa turlarini (applikatsiya, yopishtirish, konstruksiyalash, qo‘l mehnati) kiritish, turli muassasalarga sayohatlarni uyushtirish haqida maslahatlar beriladi. Ayrim hollarda pedagog maslahatlaridan to‘g‘ri foydalana bilmagan yoki mashg‘ulotlar mazmunini tushuna olmagan ota – onalarni mashg‘ulotlarga taklif qilinadi, bu mashg‘ulotlar davomida u yoki bu bo‘lim, masalan, eshitish idrokini rivojlantirish bo‘yicha ish metodikasi ochib beriladi.

Bolani o‘zi uchun qulay vositalar yordamida tarbiyalar ekan, ota-onalarning mutaxassisiga bolada maxsus ko‘nikmalar, masalan, talaffuzni shakllantirish imkonini beradi, bu esa ota-onalardan egallash anchagina murakkab bo‘lgan malakalarni talab qiladi. Shu bilan biga, kar bolalarni tarbiyalash asoslarini bilib, ayrim usullarni o‘zlashtirib olgan ota-onalar bola maktabgacha ta'limga tashkilotlarida egallagan og‘zaki nutq ko‘nikmalarini, ya’ni talaffuz va labdan o‘qish ko‘nikmalarini mustahkamlashda yordam berishi mumkin. Surdopedagog-tarbiyachilar bilan uzviy aloqada bo‘lgan, ularning maslahatlariga amal qilgan, eshitadigan bolalarni tarbiyalashga oid umumiy va kar bolalarda nutqni shakllantirishga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilgan ota-onalar o‘z bolasiga tom ma’noda ikkinchi hayot baxsh etadi.

Ota-onalarga eshitmaydigan bola bilan oilada mashg‘ulotlar o‘tkazish yuzasidan batafsil maslahatni, odatda ota-onalarga pedagogik yordam ko‘rsatadigan supdopedagog berishi lozim.

Surdopedagog xamkorlikda ota – onalarga uyda maktabgacha tashkiloti kun tartibiga o‘xshash kun tartibiga rioya qilishning muhimligini, nutqiy muloqotning, atrofidagilar haqida tasavvurlarini kengaytirishning zarurligini tushuntirishi; bola bilan uning maishiy faoliyatda ishtiroki, sayrlar, teatrda, sirkda bo‘lish davomida rivojlantirish ishlarini olib borish haqida gapirib berishi kerak. Surdopedagog xamkorlikda ota – onalarga mehnatsevarlik, madaniy – gigiyenik ko‘nikmalarni tarbiyalashga oid maslahatlar beradi.

Bola hayotining birinchi yilidanoq eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolani musiqiy tarbiyalash bo‘yicha maqsadli va muntazam ish olib borish ham maqsadga muvofiq. Bolani umumiy rivojlantirish bo‘yicha ishlar, bir tomonidan, bolaning bilishi rivojlanishini rag‘batlaydi, faoliyat turlari rivojlanishiga ko‘maklashadi, bu muloqotning rivojlanishi va nutqiy rivojlanish omillari shakllanishi uchun muhim.

Ikkinchi tomondan, bu ishlarni amalga oshirish jarayonida katta hajmdagi nutqiy materialdan foydalaniladiki, buni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtira boradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar qator xususiyatlarga ega. Ularda:

- ko'rish idroki nuqtai nazaridan yetarlicha rivojlanmaganlik, jumladan, predmetlarni idrok etish va tanib olish tezligi past ekani;
- taqlidning sekin rivojlanishi, shuningdek namuna bo'yicha tanlashda qiyinchiliklar;
- nutqning mavjud emasligi va nutqqacha muloqot defitsiti kuzatiladi.

Yuqorida sanab o'tilganlar bilish faoliyati va so'z-mantiqiy tafakkurning rivojlanishida orqada qolishga sabab bo'ladi. Aynan shu sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy tarbiyasiga katta e'tibor berish kerak bo'ladi.

Ota – onalar tomonidan hal qilinadigan oilaviy tarbiya vazifalari bolani madaniy – gigiyenik hamda o'z –o'ziga xizmat ko'nikmalar bilan tanishtirish va ularni mustahkamlash, uni tartibga, orastalikka, o'yinchoqlar, kitoblarga ehtiyojkorona munosabatga o'rgatish; foydali faoliyatga intilishni rivojlantirishdan iborat. Biroq asosiy e'tibor mutaxassislar tomonidan nutqning shakllantirilishi va nutqiy ko'nikmalarning mustahkamlanishi, eshitish faoliyatini rivojlantirish, jismoniy rivojlanishdagi og'ishlarni korreksiyalashga qaratiladi.

Pedagog xodimlarning faoliyatları bilan tanishish ularning mashg'ulotlarning ta'limi, tarbiyaviy, korreksion va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilashlarida qiyinchiliklarga duch kelishlari kuzatilgan edi. Shunga ko'ra tadqiqotda pedagoglar bilan maslahatlashib, muammoni hal qilishda nimalarga e'tibor berish kerakligi, qanday maqsadlarni oydinlashtirish lozimligi alohida ta'kidlandi:

1. Ta'limi maqsad: bolalarda ta'limi dastur hajmidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hamda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Tarbiyaviy maqsad: bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy va axloqiy sifatlarini shakllantirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa olishlariga imkon beruvchi ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: eshitishida muammosi bo'lgan bolalarda nutqiy va ijodiy faollikni, mustaqillik va erkinlikni shakllantirish.

4. Korreksion maqsad: eshitishida muammosi bo'lgan har bir bolaning birlamchi nuqsoni natijasida yuzaga keluvchi ikkilamchi nuqsonni hisobga olib, tabaqalangan holda yondashgan holda ularning sifatli ta'lif olishlarini ta'minlash.

Maxsus ta'lif tizimidagi o'quv jarayonini surdopedagog va ota-onalar bilan o'zaro xamkorligi asosida tashkil etish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qulay shart-sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Речицкая Е.Г. Дошкольная сурдопедагогика. М., 2001.
2. Шматко Н.Д., Пельмская Т.В. Если малыш не слышит.– М.: Просвещение, 2003.